

YO'L-TRANSPORT HODISALARINING ASOSIY SABABLARI.**Xatamov Odiljon Olimjon o'g'li**3 -bosqich "Yo'l harakatinitashkiletish
" yo'nalishi talabasi,Ilmiy rahbar: **S.Raxmatov**

Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola Velomoped va Skuter ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari (YTH)larning oqibatlari haqida ma'lumotlar batafsil bayon etilgan. Yo'l-transport hodisalari (YTH) dunyo bo'ylab jiddiy muammo bo'lib, haryili minglab insonlarning hayotiga zomin bo'ladi.

Kalit so'zlar: YTH, skuter va velomoped yo'laklari, yo'l, qulaylik, masofa.

KIRISH: So'ngi yillarda velomoped vasukuterlar bilan bog'liq avariyalarning miqdori ko'payib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, velomoped va skuter bilan sodir etilgan jami yo'l transport xodisalari

<i>Yillar</i>	<i>Jami YTH soni</i>	<i>Moped va velomopedlar ishtirokidagi YTH soni</i>	<i>Halok bo'lganlar</i>	<i>Jarohtlanganlar</i>
2021	8542	1210 (14%)	243	967
2022	9120	1540 (17%)	318	1222
2023	9750	1850 (19%)	402	1448

Ko'rsatkichning ortib borayotganligi, yo'l harakati ishtirokchilarining velomoped va skuterda harakatlanish qoidalari yetarli darajada e'tibor bermasligini anglatadi.

ASOSIY QISIM : Velomoped va Skuterlar haqida yo'l-transport hodisalari (YTH) haqida umumiy ma'lumot

Velomoped nima? Velomoped-bu kichik hajmli dvigatel (odatda 50 sm³ gacha) va ba'zida pedal bilan jihozlangan mototsikl turidagi transport vositasi. U asosan yoshlar yoki arzon transport vositasi sifatida foydalanuvchilar tomonidan tanlanadi. Velomopedlar yo'l harakatida faol ishtirok etgani sababli ular ko'p hollarda YTHga sababchi yoki jabrlanuvchi bo'ladi.

Velomoped ishtirokida yuz beradigan YTH sabablari:

1. Haydovchilarning qoidalarni bilmasligi yoki buzishi:

- a. Velomoped haydovchilarining katta qismi yo'l harakati qoidalaridan bexabar bo'ladi (ayniqsa yoshlar orasida).
- 2.** Himoya vositalarisiz harakatlanish:
 - a. Shlemlarning taqilmasligi bosh miya jarohatiga olib keluvchi YTHlar sonini oshiradi.
 - 3.** Tajribasizlik va yosh haydovchilar:
 - a. Ko'p holatda velomopedni 14–18 yoshdagি fuqarolar boshqaradi.
 - 4.** Tartibga solinmagan transport vositalari
 - a. Ko'p hollarda velomopedlar rasmiy ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'ladi.
 - 5.** Tunda chiroq yo'qligi yoki texnik nosozlik
 - a. Kechki payt velomopedlar ko'rinxmaydi, bu esa avtomobilchilar bilan to'qnashuv xavfini oshiradi.

Velomopedlar



Skuterlar va YTH (Yo'l-transport hodisalari) Skuterlar (ayniqsa, elektr skuterlar) so'nggi yillarda katta shaharlar va turistik hududlarda juda ommalashdi. Ular qulay, ixcham va arzon transport vositasi bo'lsa-da, xavfsizlik jihatidan ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Skuterlar ishtirokidagi YTH sabablari

- 1.** Haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini bilmasligi yoki buzishi:
 - a. Skuter haydovchilari ko'pincha svetoforga bo'ysunmaslik, yo'lni noto'g'ri kesib o'tish, qarama-qarshi yo'lga chiqish kabi xatolarga yo'l qo'yishadi.
- 2.** Himoya vositalarining yetishmasligi
 - a. Ko'pchilik shaxsiy himoya vositalarini (shlem, tizzalik, tirsaklik) taqmaydi.
- 3.** Piyodalar hududida harakatlanish
 - a. Skuterlar ko'pincha piyodalar yo'lagida, parklar va jamoat joylarida harakatlanadi, bu esa piyodalar bilan to'qnashuvga olib keladi.
- 4.** Tezlikni nazorat qilmaslik

a. Elektr skuterlar 25–50 km/soat tezlikka yetishi mumkin. Bunday tezlikda to‘xtash masofasi uzayadi, to‘satdan to‘qnashuv ehtimoli ortadi.

5. Yosh haydovchilarning tajribasizligi

a. Odatda 14–20 yoshdagilar skuterlardan foydalanadi, lekin ko‘plab hollarda ularda yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha bilim yetarli emas.

Velomoto transport ishtirokidagi hodisalarining oqibatlari:

1. Jiddiy jarohatlar va o‘lim:

a. Velosipedchi va moped haydovchilari avtomobilarga nisbatan himoyasiz, shuning uchun baxtsiz hodisalar ko‘pincha og‘ir jarohatlar yoki o‘lim bilan tugaydi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy zarar:

- a. Nogironlik, mehnat qobiliyatini yo‘qotish.
- b. Davlat byudjetiga qo‘sishimcha tibbiy xarajatlar.



Skuterlar

YTHlarning oldini olish choralari

1. Targ‘ibot va tarbiya:

a. Yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlari, qishloqlr, hahrlar va viloyatlar kesimida ommaviy targ‘ibot mashg‘ulotlarini doimiy ravishda o‘tkazish.

b. Maktablarda bolalarga velosiped haydash qoidalari o‘rgatish bo‘yicha fakultativ shaklda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish. Bunda professional ta’lim va oliv ta’lim tashkilotlarining tajribali professor-o‘qituvchilari va Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarini jalb etish.

2. Qonuniy tartiblar:

a. Velosiped va moped haydovchilari uchun maxsus yo‘laklarni joriy etish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qonun hamda qarorlar ijrosini nazorat va monitoring tizimini yuritib borish;

b. Bosh himoya kiyimi(shlem)siz ushbu transport vositalarini boshqarish holatlarini oldini olish bo'yicha keskin qarorlar qabul qilish yuzasidan manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqib amaliyotga joriy etish.

3. Infratuzilmani yaxshilash:

a. Velosiped yo'laklarini sifatli qurish va ularni belgilash, tunda yoritilishi hamda kunning qorong'u vaqtida velomoto transportlar harakati yo'nalishlarini aniqlab olish sharoitini yaratish.

b. Xavfli yo'l kesishmalarida zaruratga qarabqo'shimchasvetoforlar, tartibga soluvchi yo'l belgini o'rnatish va chizish.

XULOSA

Velomoto transport va mopedlar ishtirokidagi sodir etilayotgan YTHlar Jahon hamda Respublikamiz miqqiyosida jiddiy muammo bo'lib, yildan-yilga qurban bo'layotgan va tan jarohat olayotga harakat ishtirokchilarining soni ortib bormoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun qonun va qoidalar ijrosini qat'iy nazorat qilib borish, targ'ibot ishlari va infratuzilmani takomillashtirish zarur. Xulosa qilib aytganda, yo'l-transport hodisalarining oldini olish uchun haydovchilar va piyodalar yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishi, transport vositalarining texnik holati muntazam tekshirib turilishi va yo'l infratuzilmasi yaxshilanishi lozim. Yo'l-transport hodisalari asosan haydovchilarining xatolari, piyodalarning ehtiyoitsizligi, yo'l va ob-havo sharoitlari, transport vositalarining nosozligi hamda noto'g'ri tashkillashtirilgan yo'l harakati sababli yuzaga keladi. Ushbu holatlarni oldini olish maqsadida respublikamizning har bir mahalla va ko'chalarida yo'l haraktini tartibga soluvchi yo'l belgilari va chiqlarining mavjud holati monitoring qilinib aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tizimli ishlar olib borilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'z navbatida bu kabi say harakatlar YTHlar sonini va bundan jabir ko'rayotgan harakat ishtirokchilarni YTHlariga uchrash holatini keskin kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SHNQ 2.05.02-07 // Avtomobilyo'llari // Toshkent - 2008.
2. U.B.G'ulomov "Magistral ko'chalarda piyoda va velosipedchilarning harakatini tashkil etish (Toshkent va Termiz shaharlari misolida)" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent davlat transport universiteti, 2022-yil 42-43-bet.
3. T.f.n. prof. K.X.Azizovt.f.d. prof I.S. Sodikovt.f.d. prof A.X.Urokov, "Piyodalar va velosipedchilar harakatini tashkil etish va xavfsizligini ta'minlash" bo'yicha ilmiy maqola, Toshkent 2020-yil 1-bet
4. Q.H. Azizov." Yo'l transport hodisalarini tizimli tahlili" o'quv qo'llanma Toshkent 2022 y. – 47 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.04.2022 yildagi 172-soni
6. Internet ma'lumotlari: <https://yhxx.uz/oz>